

OLIIY TA'LIM TIZIMINI MOLIIYALASHTIRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH UCHUN ZAMONAVIIY MOLIIYAVIIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISHNI KENGAYTIRISH YO'LLARI

PhD Karlibaeva Gulshat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: karlibaeva.gulya@gmail.com

ORCID: 0009-0002-8724-9337

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy moliyaviy instrumentlardan foydalanish yo'llari yoritilgan. Unda ta'lim kreditlari, subsidiyalar, ta'lim vaucherlari, endaument fondlari, xalqaro grantlar va davlat-xususiy sheriklik modellarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida OTMlar uchun ko'p manbali moliyalashtirish modelini shakllantirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, moliyalashtirish, ta'lim krediti, endaument, grant, vaucher, davlat-xususiy sheriklik.

Kirish

Zamonaviy bilimlar iqtisodiyoti va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi nafaqat kadrlar tayyorlovchi muassasa, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi drayver sifatida qaralmoqda. 2030-yilgacha mo'ljallangan O'zbekiston Oliy ta'lim konsepsiyasida aynan moliyalashtirish modelini takomillashtirish, universitetlar avtonomiyasini oshirish va ko'p manbali moliyalashtirishni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, zamonaviy moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi, ilmiy salohiyati va innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda.

Metodologiya

Hozirgi sharoitlarda raqamli makonga asoslangan bilimlar iqtisodiyoti yoki yangi iqtisodiyot nomi bilan muomalaga kirib kelgan zamonaviy iqtisodiy tizim oltinchi texnologik ukldaga asoslanib faoliyatini yuritmoqda. Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy universitetlar nafaqat ta'lim yoki kadrlar tayyorlash tizimini, balki milliy iqtisodiyotni yaxlit barqarorligi va uning raqobatbardoshligini ta'minlovchi drayver muassasa vazifasini ham bajarmoqda.

Xuddi shuningdek, belgilangan 2030-yilga qadar oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar mavjud universitetlarni nafaqat milliy masshtabdagi, balki global masshtabdagi raqobat pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan faoliyat spektrlarini rivojlantirishni taqozo qiladi. Tom ma'noda aytganda, "Kadrlar tayyorlovchi fabrika" maqomiga ega klassik universitetlar faoliyati yangi faoliyat turlari kesimida keskin transformatsiya jarayonlarini amalga oshirishini taqozo qiladi.

Universitetlar faoliyat spektrining kengayishi bevosita ularni bir yoki bir nechta kanalli moliyalashtirish tizimidan ko'p kanalli moliyalashtirish imkoniyatlarini yuzaga keltirib, O'zbekiston Respublikasida "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori universitetlar uchun faoliyat spektrini kengaytirish orqali moliyalashtirishning ko'p kanalli usullarini rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

Agar konkret universitetlarning asosiy funksional elementlari bo'yicha bosh maqsadiga nazar tashlaydigan bo'lsak, intellektual kapitalni ishlab chiqarish ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Intellektual kapitalni samarali ishlab chiqarishga ikkita fundamental muammoni hal qilish yo'li bilan erishiladi:

1. Inson kapitalini ishlab chiqarish (qayta ishlab chiqarish) (mehnat bozorida talab qilinadigan malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash shaklida).

2. Bilimlarni translyatsiya qilish va yangi bilimlarni ishlab chiqarish. Universitetlarning yuqorida tilga olingan ikki o'zaro mushtarak maqsadlarini samarali ro'yobga chiqarish, avvalo, mavjud professor-o'qituvchilar uchun yaratiladigan rag'batlar tizimi, infratuzilmaga bog'liq.

Oldingi boblarimizda ko'rib o'tganimizdek, hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarining asosiy daromad manbai ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun to'lovlar to'g'ri kelmoqda. Lekin davlat oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari bo'yicha to'lov shartnomalari qiymatini davlat tomonidan belgilash amaliyotining saqlanib qolganligi va ushbu shartnoma qiymatlarini xizmatlar real bozor qiymatlaridan kelib chiqqan holda belgilanmaganligi natijasida oliy ta'lim muassasalarining ushbu faoliyatlari rentabelligi juda past va hattoki, ayrim yo'nalishlar bo'yicha baholar dispariteti holatlari kuzatilmoqda. Natijada, ushbu faoliyat turi bilan bog'liq yuqori darajadagi xarajatlar ushbu faoliyat natijasida olingan daromadlar asosiy qismini ushbu faoliyat turiga sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu holat yuqori xarajat sig'imiga ega bo'lgan yangi bilim ishlab chiqarishni moliyalashtirish bo'yicha universitetlar salohiyati past bo'lishiga sabab bo'lmoqda.


Demak, hozirgi sharoitda zamonaviy universitetlar faoliyatini moliyalashtirishning amaldagi manbalari ta'lim muassasalariga mustaqil ravishda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga sarmoya kiritishga imkon bermaydi. Ushbu holat universitetlar ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirishning bozor munosabatlari shart-sharoitiga xos yangi barqaror manbalarini shakllantirishni taqozo etadi. Zamonaviy manbalari quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- uzoq muddatli tavsifga ega bo'lish. Bir martalik fakultativ qo'llab-quvvatlash dasturlari tizimli samaraga olib kelmaydi. Shuning uchun o'rta istiqbolga doimiy daromad keltiruvchi manbalarni shakllantirish lozim. Ushbu manbalar ilmiy tadqiqotchilar jamoasi uchun o'z mablag'larining barqarorligiga ishonchi komil bo'lishi kerak;

- ilmiy ishlarni to'laqonli olib borish uchun yetarli moliyaviy resurslarni uzluksiz shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Bu shart aniq bo'lsa-da, bir qator hollarda bajarilmasa, ajratilgan mablag' ilmiy faoliyatni tizimli qo'llab-quvvatlash yuzasidan nominal miqdori hatto bitta loyihani amalga oshirish uchun nisbatan yetarli bo'lmasligi mumkin. Hozirgi sharoitda Universitetlar faoliyati ortiqcha

byurokrtiyadan xoli emas. universitet faoliyatining barcha sohalarini ortiqcha ma'muriy usullar vositasida tartibga solishning nisbatan yuqori ko'lami mavjudligi kuzatilmoqda. Amaliyot tasdiqlaydiki, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini moliyalashtirish byurokratik tartib-qoidalarga eng sezgir bo'lib, agar ular haddan tashqari murakkab bo'lsa, yuqori ehtimollik darajasiga ega bo'lgan moliyalashtirish manbalaridan to'liq foydalanish imkoniyatlari cheklanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekiston uy xo'jaliklarining daromadi oila a'zolarining oliy ma'lumot uchun ta'lim xizmatlarini sotib olish uchun yetarli emas. Xususan, uy xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari yuqori sifatli kadrlar tayyorlash xizmatlari uchun daromadlari yetarli emas. Ushbu holat natijasida ta'lim xizmatlarini real bozor bahosida sotish imkoniyatiga ega bo'lgan xususiy universitetlar faoliyatining rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi. Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, moliyaviy mustaqillikka ega oliy ta'lim muassasalari uchun ham ta'lim xizmatlari narxlarini erkinlashtirish uchun sharoit yetarli ekanligini tasdiqladi. O'zbekiston Respublikasida amalda faoliyat yuritayotgan va moliyaviy mustaqillik berilgan¹⁶⁴ oliy ta'lim muassasalari daromadlari shakllanishining istiqbolli yo'nalishlari sifatida quyidagilar tavsiya etiladi:



Rasm 1. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning an'anaviy va istiqbolli yo'nalishlari¹⁶⁵

Davlat tomonidan moliyalashtirishning yangi istiqbolli yo'nalishlaridan biri ta'lim vaucherlari hisoblanadi. Ta'lim faoliyatini moliyalashtirishning ushbu shakli

¹⁶⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-61-son qarori // <https://lex.uz/docs/5793251>.

¹⁶⁵ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

talabaga beriladigan maxsus hujjat (ta'lim vaucheri) dan foydalanishni o'z ichiga oladi va bu shaxsning ma'lum miqdorda ta'lim olishi uchun davlatning moliyaviy majburiyati hisoblanadi.

Ta'lim vaucherlari bilan amaliy tajriba hali ham juda cheklangan. Ammo ta'limni moliyalashtirishni tashkil etishga bunday yondashuv nazariy jihatdan iqtisodchilar uchun juda jozibador hisoblanadi. Oliy ta'lim vaucherlari davlatning fuqarolar uchun kasbiy tayyorlashga bepul oliy ta'limni ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini amalga oshirishning bozor mexanizmini o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa, ta'lim xizmatlarini yetkazib beruvchilar davlat va xususiy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Vaucherli moliyalashtirish barcha ta'lim tashkilotlarini, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, byudjet mablag'larini olishda teng huquqli sharoitni yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ta'lim vaucherlaridan foydalanishning mumkin bo'lgan sxemalari bo'yicha ko'plab takliflar mavjud. Bitta sxemada vaucher miqdori barcha talabalar uchun bir xil bo'lishini ta'minlaydi va o'qish joyidan qat'i nazar, kerakli ta'lim olishning to'liq narxini belgilaydi.

Vaucher davlat tomonidan qoplanadigan miqdorni kafolatlaydi, biroq ayni paytda, oliy ta'lim tashkilotlari ularda o'qishni istaganlar uchun yuqori o'qish narxini belgilashga haqli. Farzandini talab yuqori bo'lgan va ta'lim xizmatlari narxlari yuqori bo'lgan universitetlarda o'qitish niyati bo'lsa, avvalo, davlat tomonidan olingan vaucherlar beriladi va universitetda to'lov shartnoma uchun belgilangan qiymatning qismini kompensatsiya qilish oila jamharmasi hisobidan qoplanadi. Ushbu sxemada ta'lim muassasalarini vaucher bilan moliyalashtirish va aholi jon boshiga moliyalashtirish o'rtasidagi farq kuzatiladi. Ta'lim pullik bo'ladi, ma'lum bir ta'lim tashkilotida ta'lim narxi davlat tomonidan kafolatlangan tovon miqdoridan yuqori bo'lishi mumkin bo'lgan talab va taklif nisbati bilan belgilanadi.

Talabalar uchun grantlar. Ta'lim faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirishning ushbu shakli talabalarga ta'lim olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun subsidiyalar (grantlar) berishdan iborat. Undan bir qator mamlakatlarda kasb-hunar ta'limini moliyalashtirish uchun foydalaniladi. Grantlar tekin va qaytarilmas asosda beriladi. Ular haqiqiy ta'lim uchun haq to'lash, o'qish paytida yashash xarajatlarini qoplash uchun (uylaridan tashqarida yashashga majbur bo'lganlar uchun), oziq-ovqat va boshqalar uchun berilishi mumkin. Grant shakli talabalarga ular o'qiyotgan universitetlar tomonidan beriladigan stipendiyalardir.

Ba'zi mamlakatlarda universitetga o'qishga qabul qilingan har qanday mamlakat fuqarosi ta'lim olish uchun grant olish imkoniyatiga ega. Boshqa mamlakatlarda grantlar hamma talabalarga emas, balki yetarlicha yuqori ball olganlargagina beriladi. Qolganlari o'z hisobidan yoki ota-onasining yordami bilan ta'lim xarajatlarini qoplashlari kerak.

Grantlar maktabdan keyin o'qishni davom ettirish malakasiga ega bo'lganlar uchun kasb-hunar ta'limidan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va kam ta'minlangan oilalar farzandlarining ta'lim uchun pul to'lashga qodir emasligi sababli kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik uchun mo'ljallangan. Biroq moliyalashtirishning ushbu shakli bilan bog'liq tajriba shuni ko'rsatadiki, u turli xil daromad guruhlariga vakillari uchun oliy

ta'limni tenglashtiruvchi ta'sir ko'rsatmaydi. Universitet talabalari orasida, odatda, daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan oilalarning farzandlari ko'p.

Ta'lim kreditlari. Talabalarga o'qish to'lovlarini to'lash uchun kreditlar davlat, ta'lim muassasalarining o'zlari va xususiy tashkilotlar tomonidan berilishi mumkin. Oxirgi ikki holatda davlat ssudalar qaytarilishida kafillik vazifasini bajaradi. Ta'lim kreditlari turli muddatlarga berilishi mumkin. Ba'zi hollarda davlat olingan kreditlar bo'yicha foizlarni to'lashni subsidiyalaydi yoki qarz oluvchining daromadi past bo'lsa, kreditni to'lashni kechiktirish va hatto uni butunlay hisobdan chiqarish imkoniyatini beradi.

Kredit berish Xitoy, Yaponiyada oliy ta'limni moliyalashtirishning asosiy shakli bo'lib, u AQSH, Kanadada keng tarqaldi va Buyuk Britaniyada so'nggi o'n yil ichida rivojlanib, u yerda grant mablag'larini to'ldirdi. Shvetsiyada ta'lim kreditlari davlat tomonidan o'n olti yoshga to'lgan barcha shaxslarga: o'rta maktab o'quvchilari va talabalarga beriladi. AQSHda davlat, birinchi navbatda, xususiy tashkilotlar tomonidan kreditlar berilishini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi.

Talaba kreditlari ko'rinishidagi ta'limni moliyalashtirish boshqa moliyalashtirish shakllariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Boshqa barcha hollarda, aholining bir qismi uchun oliy ma'lumot barcha soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadi, ularning aksariyati bunday ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslardir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim kreditlarini taqdim etish ko'proq tenglikni ta'minlaydi, chunki bu holda ta'lim olmaganlarga nisbatan ta'limdan foyda ko'rgan kishi kelajakda ta'lim uchun o'z daromadidan to'laydi. Moliyalashtirishning ushbu shakli kam ta'minlangan oilalardan bo'lgan shaxslarni kamsitmaydi. Bu ularga ta'lim olish imkoniyatini beradi va ular o'z yuqori daromadlaridan olingan kreditni keyinchalik to'laydilar.

Ta'lim uchun kredit olish zarurati talabalarning o'z o'qishlariga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini rag'batlantiradi - axir, ular o'z daromadlari hisobidan kreditni to'lashlari kerak, uning darajasi ta'lim dasturlarini o'zlashtirish sifatiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim kreditlaridan keng foydalanishga o'tish davlatning ta'limga sarflanishini qisqartiradi va byudjet yukini kamaytiradi. To'g'ri, bu darhol sodir bo'lmaydi, chunki pulni qaytarish ko'p yillardan keyin boshlanadi.

Ularning har biri ma'lum qiyosiy afzalliklarga va kamchiliklarga ega bo'lib, quyidagi rasm orqali ko'rishimiz mumkin.

Jadval 1. Ta'lim krediti va ta'lim subsidiyalarining solishtirma tahlili

№	Ta'lim krediti	Ta'lim subsidiyalari
1.	Byudjetga yuqori moliyaviy yuklama tushmaydi: a) davlat ta'lim krediti sharoitida – qaytarish sharti bilan beriladi; b) xususiy ta'lim krediti sharoitida davlat zaif darajada ishtirok etib, foiz stavkalarini subsidiyalash yoki hukumat kafolatlari beriladi.	Byudjetga yuqori moliyaviy yukning mavjudligi kuzatiladi: 1. Qaytarilmaydigan subsidiyalar holatida ta'lim subsidiyalari fondi byudjet tomonidan doimiy ravishda shakllantirilib xarajatlarga yuk tushadi. 2. Qaytariladigan subsidiyalar holatida maqsadli subsidiyalarni qaytarishdagi imtiyozlar hisobiga byudjetdan xarajatlar amalga oshiriladi.
2.	Ta'lim kreditlarini ajratishda maxsus shartlarning mavjud emasligi	Subsiyalar berishning maxsus shartlarini joriy etish imkoniyati:

		a) to'lov qobiliyati bo'yicha (eng kam ta'minlangan); b) davlat oldidagi majburiyatlar (armiya, ma'lum bir kasb tanlash va undagi majburiy ish) bo'yicha.
3.	Ish haqini oshirish orqali kredit qaytarilishini ta'minlash zaruratidan kelib chiqib, ta'lim xizmatlari bozorida, o'quv jarayonida va mehnat bozorida mas'uliyatli xatti-harakatlarni rag'batlantirish.	Qaytariladigan subsidiyalar bo'lgan taqdirda yuqori rag'batlantiruvchi ta'sirning mavjudligi. Uning qaytarilmaydigan subsidiyalar sharoitida zaiflashishi, lekin ayni paytda, davlat oldidagi majburiyatlarning mavjudligi.
4.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi tomonidan ta'lim kreditlariga talabning to'lov qobiliyati riskining mavjudligi yuzasidan kamligi	Kam ta'minlangan aholi qatlami tomonidan talabning yuqoriligi
5.	Ta'lim kreditining shartlari kesimida talabalarning yaxshi o'qishini va kereraviy o'sishini rag'batlantirish xususiyatiga ega	Talabalarning yaxshi o'qishi va kereraviy o'sishini rag'batlantirish xususiyati yetarli darajada emas.

Demak, davlat ta'lim krediti tizimi quyidagi qiyosiy afzalliklarga ega: xususiy sektor resurslarini jalb qilish imkoniyati cheklanib, davlat moliyaviy resurslari hisobiga qaytarib berish shartlari asosidagi moliyalashtirish talabalarning mutaxassislikni tanlash, o'qish va keyinchalik karyeraviy istiqboli jarayonida mas'uliyatli xulq-atvorini shakllantiradi. Universitet bitiruvchilarining mehnat unumdorligini oshirishni rag'batlantiradi. Ta'lim krediti tizimining kamchiliklari qarz oluvchiga kreditdan maqsadli va samarali foydalanish manfaatlarida ta'sir ko'rsatishning yetarli mexanizmlariga ega bo'lmagan kreditorning ma'naviy xulq atvoriga yaxshiroq o'qish, muvaffaqiyatli ishga joylashish) asoslangan qaytarilmaslik xavfining mavjudligidadir.

Mablag'lar davlat manbalari (federal, mintaqaviy, mahalliy byudjetlar) hisobidan keladi. Ushbu tizim ham ma'lum kamchiliklarga ega. Xususan, davlat byudjeti uchun qimmatga tushadi, talabalarni o'qish va keyinchalik karyeraviy rivojlanishini nisbatan past darajadagi rag'batlantirish imkoniyatiga ega.


Universitetlar faoliyatini moliyalashtirishning zamonaviy instrumentlaridan biri Endaument fondlarini tashkil qilish hisoblanadi.

Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ilk eandument fondlari juda qadimiy tarixda, ya'ni Platon tomonidan o'z akademiyasi uchun tuzilgan. Akademiya 900 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, 529-yilda imperator Yustinian tomonidan yopilgan.

Zamonaviy maqsadli kapitalni o'zida mujassamlashtiruvchi Endaument fondining yana bir analogi Buyuk Britaniyada, 1502-yilda qirol Genrix VIII buvisi Ledi Margaret Bofort Oksford va Kembrij universitetlarida kafedralarini yaratishga xayriya qilganida paydo bo'ldi.

Maqsadli kapitalni o'zida mujassamlashtiruvchi Endaument fondlari shakllanish yo'nalishlari bo'yicha bir qator turkumlarga ajratiladi. Buni quyidagi rasmdan ko'rishimiz mumkin. 3.8-rasmga ko'ra, Endaument fondlari orqali namoyon bo'ladigan maqsadli kapital o'z maqsadli yo'nalishiga ko'ra 3 asosiy turkumga ajratiladi. Garchi ilk Endaument fondlari oliy ta'lim sohasida keng yoyilgan bo'lsa-da,


keyinchalik ushbu xayriya tavsifidagi fondlar jamiyatning ijtimoiy sohadagi muammolarni hal qilishga yoki ilmiy tadqiqot va fan taraqqiyotining eng yuksak yutuqlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida shakllantirila boshlandi. Xususan, zamonaviy sharoitlarda ilmiy tadqiqotlar sohasidagi eng mashhur Endaument fondlardan biri Nobel jamg'armasi hisoblanib, ushbu fond - 19-asrda yaratilgan eng mashhur xalqaro fondidir. Alfred Nobelning vasiyatiga ko'ra, uning mol-mulkini sotishdan tushgan mablag'lar ishonchli qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilinishi ko'zda tutilgan¹⁶⁶ va olingan daromad ilmiy tadqiqotchi olimlarga jahon ilm-fani rivojlanishiga qo'shgan hissasi va ilm-fandagi ajoyib yutuqlari uchun hamda jamoat arboblari qo'shgan hissasi uchun mukofotlar sifatida berilishi ko'zda tutilgan.



Rasm 2. Endaument fondi shaklidagi maqsadli kapitalning turkumlanishi¹⁶⁷

Demak, Endaument fondlari maqsadli xayriya jamg'armalari hisoblanib, ularni ma'lum aktivlarga investitsiyalash natijasida olingan daromadlar maqsadli yo'nalishda sarflanishi ko'zda tutiladi.

Endaument fondlari faoliyatini prinsipial tuzilmasi quyidagi rasmda keltirilgan.



Rasm 3. Universitet Endaument fondlari faoliyati prinsipial tuzilmasi¹⁶⁸

3.9-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, Endaument fondlarini tashkil qilishda metsenatlar tomonidan universitetlarga xayriya qilingan mablag'lar (1) boshqaruv kompaniyalariga (2) o'tkaziladi. Shu yuzasidan Endaument fondlariga nisbatan "maqsadli kapital" tushunchasi kiritilganligini tarixiy tajribalar tasdiqlaydi.

Endaument fondlarining milliy oliy ta'lim muassasalari uchun bir qator afzallik jihatlari mavjud. Birinchidan, moliyaviy mustaqillikka ega bo'lgan universitetlar,

¹⁶⁶Устав учреждения Нобеля, изданный в Стокгольме 29 июня 1900 г. – СПб.: Ин-т инженеров путей сообщения, 1902.

¹⁶⁷ Rasm muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁶⁸ Rasm internet rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

institutlarga nisbatan o'rta muddatli tarixiy rivojlanish davriga ega bo'lib, sobiq bitiruvchi talabalar yetarli karyeraviy o'sish imkoniyatlariga va moliyaviy salohg'iyatga ega.

Ikkinchidan, ushbu universitet, institutlar milliy masshtabda o'ziga xos ravishdagi akademik va ilmiy reputatsiyaga ega.

Uchinchidan, shakllangan Endauement fondlari mablag'lari hisobiga boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan investitsiyalash uchun moliyaviy bozorlar infratuzilmasining rivojlanish bosqichini boshidan o'tkazmoqda.

To'rtinchidan, ta'lim, ilm-fan rivojlanishiga hissasini qo'shadigan tadbirkorlik subyektlari o'ziga xos ravishda qadrlanishi milliy mentalitetimiz, tarixiy shakllangan qadriyatlarimizda mavjuddir.

Albatta, Endauement iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan iqtisodiy subyektlar va universitet o'rtasida davlat xususiy sherikchiligi formatida moliyalashtirishning manbai bo'lib, kelajak universitetlarining inklyuziv rivojlanishida ustuvor ahamiyat kasb etadi va avlodlarning hamjihatligi prinsipiidagi birlashuvni mustahkamlaydi. Tabiiy ravishda jahon amaliyoti tasdiqlaydiki, Garvard, Yel, Prinston, Kembridj, Oksford, Stenford universitetlari qatorida Arab mamlakatlari universitetlari ikkinchi asrdan beri shu tamoyil asosida yashab kelmoqda.

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun Endauementning barcha imkoniyatlari hali ma'lum emas, ammo ishonchli jamg'armaning ushbu modeli vaqt o'tishi bilan ildiz otib, o'z natijalarini berishiga shubha yo'q.

Xalqaro kollektiv ta'lim va ilmiy tadqiqot grantlardan tushumlar salmog'ini oshirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Ayni paytda, jahonning yetakchi mamlakatlari va xalqaro davlatlararo tashkilotlar ta'lim platformasining rang-barang xalqaro loyihalari mavjud bo'lib, ushbu loyihalar milliy universitetlarimiz faoliyatiga nisbatan cheklangan.

Ushbu loyihalar nafaqat akademik sohada, balki ilmiy tadqiqot sohasidagi xalqaro kollaboratsiyani rivojlantirish dasturlarini ham o'z ichiga olgan. Ushbu loyihalar asosida ajratiladigan grantlar professor-o'qituvchilar stajirovkasi, loyiha doirasidagi zaruriy infratuzilmani shakllantirish bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirishda muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida Jahon banki va Islom taraqqiyot banki hamda Osiy taraqqiyot banki ishtirokidagi umumiy qiymati 114,03 mln. dollarlik 3 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mazkur loyihalar doirasida 2019-2022-yillar mobaynida oliy ta'lim muassasalarini 56,6 mln. dollarlik 368 ta zamonaviy o'quv va 12,0 mln. dollarlik 7 ta ilmiy laboratoriya to'plamlari hamda 2,3 mln. dollarlik axborot-kommunikatsiya texnikalari bilan jihozlash nazarda tutilgan.

Mazkur loyihalar doirasida 40 ta oliy ta'lim muassasasi 17,5 mln. dollarlik 112 ta o'quv va 10,3 mln. dollarlik 5 ta ilmiy laboratoriyalar to'plamlari hamda 86 ta oliy ta'lim muassasalari 2,3 mln. dollarlik axborot-kommunikatsiya texnikalari bilan jihozlandi.

Shuningdek, mazkur loyihalar doirasida Xalqaro "Elsevier" (Niderlandiya) kompaniyasi bilan shartnoma imzolandi. Ushbu shartnomaga muvofiq oliy ta'lim

muassasalari talabalari, professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilari "Elsevier" kompaniyasining elektron bazasidagi 10 000 ga yaqin onlayn kitoblar va 750 000 dan ortiq onlayn jurnallardan foydalanib kelinmoqda.

Natijalar

Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi: O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari daromadlarining asosiy qismini byudjet mablag'lari va to'lov-kontrakt asosidagi tushumlar tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlar, grantlar, xayriya mablag'lari, pullik xizmatlar va sanoat bilan hamkorlik orqali qo'shimcha daromadlar manbalari yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada OTMlar ilmiy va innovatsion faoliyatni mustaqil moliyalashtirish imkoniyatidan cheklangan.

Ta'lim kreditlari va vaucherlari tizimi: Kreditlash tizimi orqali ta'lim xarajatlarini talabalar orasida teng taqsimlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash mumkin. Ko'plab mamlakatlarda "daromadga bog'liq to'lov" (income-contingent loan) modeli joriy etilgan bo'lib, bunda bitiruvchi faqat daromadi ma'lum miqdordan oshgach, kreditni qaytaradi. Ta'lim vaucherlari tizimi esa talabalarni erkin tanlov asosida xususiy yoki davlat OTMlariga yo'naltirish orqali raqobat muhitini kuchaytiradi va ta'lim sifatini oshiradi.

Endaument fondlari: Universitetlarda sobiq bitiruvchilar, homiyarlar va yirik kompaniyalar tomonidan moliyalashtiriladigan barqaror investitsion fondlar shakllantirish orqali moliyaviy mustaqillikka erishish mumkin. Bu fondlar asosan ilmiy tadqiqotlar, stipendiyalar, laboratoriya va infratuzilmani yangilash kabi yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Endaumentlar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.

Davlat-xususiy sheriklik va grantlar: Oliy ta'lim sohasida xususiy sektor bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar (infratuzilmani modernizatsiya qilish, innovatsion markazlar barpo etish va b.) moliyalashtirishni kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro donorlar, banklar (Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki) tomonidan ajratilayotgan grant va kreditlar OTMlarning tashqi manbalarga chiqish imkoniyatini yaratmoqda.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida hali ham byudjetdan moliyalashtirish asosiy o'rinni egallaydi. Bu esa OTMlarning tashabbuskorligi va innovatsion faoliyatini cheklaydi. Xorijiy tajriba shuni anglatadiki, moliyalashtirishni diversifikatsiya qilish va moliyaviy avtonomiyani kengaytirish universitetlarga ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni rivojlantirish va xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

Shuningdek, ta'lim kreditlari tizimida daromadga bog'liq qaytarish modeli ijtimoiy himoya va moliyaviy barqarorlikni uyg'unlashtiradi. Endaument fondlari esa universitetlarga byudjetdan mustaqil daromad manbalarini shakllantirish imkonini beradi. Ta'lim vaucherlari orqali esa davlat xususiy sektor bilan raqobat orqali ta'lim sifatini oshiradi. Shu bilan birga, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda ochiqlik, samaradorlik va muqobil modellarni sinovdan o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va tavsiyalar

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida daromadga bog'liq ta'lim kreditlari modelini bosqichma-bosqich joriy etish va bu borada me'yoriy huquqiy asoslarni yaratish. Endaument fondlarini tashkil etish bo'yicha universitetlarga huquqiy, soliq va tashkiliy rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Ta'lim vaucherlarini tajriba tarzida muayyan hududlarda yoki sohalarda joriy qilish va ularning samaradorligini baholash asosida kengaytirish. Universitetlarga grantlar, pullik xizmatlar va homiylik mablag'lari bo'yicha moliyaviy avtonomiya berish.

OTMlar moliyaviy faoliyatini baholashda shaffoflik, natijaviylik va barqarorlikka asoslangan indikatorlar tizimini ishlab chiqish.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **PQ-4947-son qarori**, 2021-yil 19-fevral. *Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida*
2. Ministry of Higher Education and Innovation of Uzbekistan. *Avtonomiya bo'yicha konsepsiya*. 2023
3. World Bank. *Tertiary Education Financing for Development*. Washington DC, 2022.
4. Abdulayeva N. *Oliy ta'limni moliyalashtirishda innovatsion yondashuvlar*. Iqtisodiyot va Ta'lim, 1(1), 2020, 44-51.
5. Ergashov B. *Oliy ta'limda moliyaviy barqarorlik indikatorlari*. TDYUU Ilmiy jurnali, 2022.
6. UNESCO . *New Social Contract for Education*. Paris, 2023